



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

O'ZBEK MILLIY MUSIQASINING IJTIMOIY-FALSAFIY VA DIDAKTIK- TARBIYAVIY AHAMIYATI

Mamadjanov Ulug'bek Valievich
Farg'ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada o'zbek milliy musiqasi asosida yoshlarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishning nazariy-metodologik masalalari, o'zbek milliy musiqasi asosida yoshlarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini, o'zbek milliy musiqasi asosida yoshlarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishning ustuvor vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, o'zbek milliy musiqasining ijtimoiy-falsafiy va didaktik-tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, o'zbek milliy musiqasi, jamiyat, modernizatsiya, innovatsiya, individual, mexanizm, texnologiya, badiiy-estetik tafakkur.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ И ДИДАКТИЧЕСКИ-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКИ

Мамаджанов Улугбек Валиевич
Ферганский государственный университет, независимый соискатель

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методологические вопросы развития художественно-эстетического мышления молодежи на основе узбекской национальной музыки, социально-философские аспекты развития художественно-эстетического мышления молодежи на основе узбекской национальной музыки, а также приоритетные задачи развития художественно-эстетического мышления молодежи на основе узбекской национальной музыки. Также анализируются теоретические основы развития художественно-эстетического мышления молодежи на основе узбекской национальной музыки.

Ключевые слова: музыкальное образование, узбекская национальная музыка, общество, модернизация, инновации, личность, механизм, технология, художественное и эстетическое мышление.

THE SOCIO-PHILOSOPHICAL AND DIDACTIC-EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF UZBEK NATIONAL MUSIC

Mamadjanov Ulug'bek Valievich
Fergana State University, Independent Researcher

Abstract

The article studies the theoretical and methodological issues of developing the artistic and aesthetic thinking of young people based on Uzbek national music, the socio-philosophical aspects of developing the artistic and aesthetic thinking of young people based on Uzbek national music, and the priority tasks of developing the artistic and aesthetic thinking of young people based on Uzbek national music. The theoretical foundations of developing the artistic and aesthetic thinking of young people based on Uzbek national music are also analyzed.

Keywords: music education, Uzbek national music, society, modernization, innovation,

individual, mechanism, technology, artistic and aesthetic thinking.

Milliy musiqa har bir xalqning tarixiy tajribasi, madaniy xotirasi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan noyob badiiy fenomen hisoblanadi. U xalqning dunyoqarashi, estetik ideallari, hayot tarzi va ruhiy olamini ifoda etuvchi muhim madaniy meros sifatida shakllangan. Shu bois milliy musiqa nafaqat san'at turi, balki jamiyat ma'naviy hayotini shakllantiruvchi ijtimoiy-madaniy institut sifatida ham qaraladi. "Milliy musiqada xalqning tarixi, an'analari, urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlari badiiy ifoda topadi. Shu jihatdan u avloddan-avlodga ma'naviy meros sifatida o'tib kelayotgan muhim madaniy boylikdir".

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O'zbek milliy musiqasi asosida yoshlarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishning nazariy-metodologik masalalari, o'zbek milliy musiqasi asosida yoshlarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlar, o'zbek milliy musiqasi asosida yoshlarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishning ustuvor vazifalari G.Matyokubova, F.Asqar, I.A.G'anieva, G.A.Tursunova, Z.Oripov, Sh.I.Ayxodjaeva, T.V.Cherednichenko, S.F.Gurbanaliev, A.G.Kostyuk, L.S.Cherkashina, N.Yanov-Yanovskaya, A.Boboxonov, S.Jumaev, D.Karomatli, T.Levin, Yu.Elsner kabi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Milliy musiqaning tarbiyaviy ahamiyati uning insonning ruhiy dunyosiga ta'sir ko'rsatish xususiyati bilan belgilanadi. Musiqa orqali insonda nafosat tuyg'usi, estetik did va ma'naviy qadriyatlarga hurmat hissi shakllanadi. Ayniqsa, milliy musiqa asarlari yosh avlodni milliy madaniyat ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Chunki bunday asarlarda xalqning ma'naviy qadriyatlari, insonparvarlik g'oyalari va axloqiy me'yorlari mujassamlashgan bo'ladi. Pedagogik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, "milliy musiqiy merosdan ta'lim jarayonida samarali foydalanish o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, madaniy merosga hurmat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi".

Milliy musiqaning tarbiyaviy salohiyati uning estetik va axloqiy ta'sir imkoniyatlari bilan bog'liqdir. "Musiqiy asarlarda ifoda etilgan obrazlar, ritm va melodiya insonning emotsional holatiga ta'sir ko'rsatib, uning ichki dunyosida muayyan ruhiy kechinmalarni uyg'otadi". Bu esa shaxsning axloqiy kamolotida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, an'anaviy musiqiy meros – maqomlar, xalq qo'shiqlari va milliy kuylar insonda sabr-toqat, hayotga muhabbat, insonparvarlik va ezgulik kabi ma'naviy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida milliy musiqa tarbiyaviy vosita sifatida keng imkoniyatlarga ega. Musiqiy ta'lim jarayonida milliy musiqiy merosni o'rganish orqali o'quvchilarda nafaqat estetik did, balki ijodiy tafakkur, madaniy tafakkur va ijtimoiy faollik ham rivojlanadi. Shuningdek, "milliy musiqani o'rganish jarayoni yoshlarning madaniy identifikatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki milliy musiqa insonni o'z madaniy ildizlari bilan bog'laydi va uning milliy o'zligini anglash jarayonini chuqurlashtiradi". Shu ma'noda milliy musiqiy merosdan ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanish yosh avlodni ma'naviy barkamol, madaniy jihatdan yetuk shaxs qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, milliy musiqa xalqning ma'naviy hayotini ifoda etuvchi muhim madaniy fenomen bo'lib, u jamiyatning ma'naviy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. U insonning estetik tafakkurini rivojlantirish, axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash va milliy madaniyatga bo'lgan hurmatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli milliy musiqiy merosni saqlash, uni ilmiy o'rganish va ta'lim jarayonida keng qo'llash jamiyat ma'naviy taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

O'zbek milliy musiqasi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan va xalqning madaniy xotirasi, estetik qarashlari hamda ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan badiiy fenomen hisoblanadi. U o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra nafaqat san'at turi, balki xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi va ruhiy olamini ifoda etuvchi madaniy meros sifatida namoyon bo'ladi. "O'zbek musiqasi turli davrlarda ijtimoiy-madaniy muhit ta'sirida boyib borgan va bu jarayonda

xalq og‘zaki ijodi, an‘anaviy musiqiy maktablar hamda kasbiy musiqa an‘analari muhim rol o‘ynagan”. Shu sababli milliy musiqiy merosni tadqiq etish nafaqat san‘atshunoslik, balki madaniyatshunoslik va falsafa nuqtai nazaridan ham dolzarb masala hisoblanadi.

O‘zbek milliy musiqasi tarkibida bir nechta asosiy yo‘nalishlar shakllangan bo‘lib, ular orasida xalq musiqasi, an‘anaviy kasbiy musiqa va zamonaviy milliy musiqa yo‘nalishlari alohida o‘rin tutadi. “Xalq musiqasi asosan og‘zaki ijod an‘analariga tayanadi va xalq turmushi, urf-odatlar hamda marosimlari bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Bunday musiqiy namunalarga xalq qo‘shiqlari, laparlar, termalar, yallalar va marosim qo‘shiqlari kiradi”. Ularning asosiy xususiyati soddam melodik tuzilish, tabiiy ritm va xalq hayotiga yaqin mazmun bilan xarakterlanadi. Xalq musiqasi asrlar davomida og‘zaki tarzda avlodlardan avlodga o‘tib kelganligi bilan ham ahamiyatlidir. An‘anaviy kasbiy musiqa esa milliy musiqiy madaniyatning murakkab va yuksak shakllaridan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalishga maqom san‘ati, katta ashula va ayrim an‘anaviy ijrochilik maktablari kiradi. Xususan, Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari o‘zbek musiqiy madaniyatining eng yuksak namunasi sifatida e‘tirof etiladi. “Maqomlar nafaqat musiqiy asar, balki muayyan falsafiy-estetik mazmunga ega bo‘lgan murakkab musiqiy tizimdir. Ularda melodik rivojlanish, ritmik murakkablik va ijro mahorati yuqori darajada namoyon bo‘ladi”. Shu jihatdan maqom san‘ati o‘zbek milliy musiqasining kasbiy va akademik an‘analarini ifoda etuvchi muhim yo‘nalish hisoblanadi.

O‘zbek milliy musiqasining yana bir muhim yo‘nalishi – zamonaviy milliy musiqa hisoblanadi. Bu yo‘nalish milliy an‘analar va zamonaviy musiqiy uslublarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida rivojlanmoqda. “Zamonaviy milliy musiqa kompozitorlik ijodi, estrada musiqasi va simfonik asarlar orqali namoyon bo‘ladi. Unda milliy lad va ritmlar saqlangan holda zamonaviy musiqiy ifoda vositalari qo‘llaniladi. Bu jarayon milliy musiqiy madaniyatning yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda”. Ayniqsa, kompozitorlar milliy kuy va maqom elementlarini simfonik va kamer musiqiy shakllarda qo‘llash orqali milliy musiqiy an‘analarni yangi badiiy shakllarda namoyon etmoqdalar. Mazkur yo‘nalishlar bir-biridan ayrim xususiyatlari bilan farq qiladi. Xalq musiqasi soddaligi va tabiiyligi bilan ajralib tursa, an‘anaviy kasbiy musiqa murakkab musiqiy tuzilishi va yuqori ijrochilik mahoratini talab etishi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy milliy musiqa esa milliy an‘analarni saqlagan holda yangi uslubiy yo‘nalishlar bilan boyitilganligi bilan ajralib turadi. Shu tariqa, o‘zbek milliy musiqasi turli shakl va yo‘nalishlar uyg‘unligida rivojlanib, xalqning madaniy merosini saqlash va boyitishga xizmat qilayotgan muhim badiiy tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek milliy musiqasi xalqning ma‘naviy va madaniy hayotini ifoda etuvchi boy musiqiy merosdir. Uning xalq musiqasi, an‘anaviy kasbiy musiqa va zamonaviy milliy musiqa kabi yo‘nalishlari milliy madaniyatning turli qirralarini aks ettiradi. Bu yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unligi esa milliy musiqiy madaniyatning barqaror rivojlanishi va uning kelajak avlodlarga yetkazilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуллаев Р. Муסיқашунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2017. – Б. 41–44.
2. Ибрагимова Д.Р. Ўзбек миллий муסיқасининг замонавий ривожланиш тенденциялари // Маданият ва санъат. – Тошкент, 2021. – №4. – Б. 72
3. Каримов С. Муסיқа маданияти дарсларида фанлараро интеграциялашув йўллари ва механизмлари // Журнал музыки и искусства. – 2021. – №2(3). – Б. 56–59
4. Мирхайдарова З. Жаҳон халқлари муסיқа санъастининг ривожланиш жараёни. // Ўқув қўлланма. – Тошкент.: Ўзбекистон давлат консерваторияси. 2009
5. Ражабов И. Ўзбек анъанавий муסיқаси тарихи. – Тошкент: “Yangi asr avlodi”, 2018. – Б. 101
6. Юсупова Н.Қ. Муסיқий таълим назарияси ва методикаси. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2019